


## XI. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI




Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilning 1-iyul holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 47 734 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 27 940 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 58,5 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (49,5 %), savdo (16,9 %), sanoat (9,6 %) va qurilish (5,1 %) sohalariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni  
(1-iyul holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)





Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlar sonining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi  
(2023 yil 1 iyul holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan foizda	birlik	jamiga nisbatan foizda
<b>Jami</b>	<b>47 734</b>	<b>100,0</b>	<b>27 940</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	23 642	49,5	11 127	39,8
sanoat	4 584	9,6	2 715	9,7
qurilish	2 442	5,1	1 557	5,6
savdo	8 060	16,9	5 687	20,4
tashish va saqlash	668	1,4	422	1,5
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 877	3,9	1 227	4,4
axborot va aloqa	335	0,7	221	0,8
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	388	0,8	328	1,2
boshqa faoliyat turlari	5 738	12,1	4 656	16,6

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilning 1 iyul holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 29 468 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 20262 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 68,8 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) savdo (27,4 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (18,2 %) sanoat (15,6 %) va qurilish (8,3 %) sohalariga to'g'ri keladi.



**Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**  
2023 yil 1 iyul holatiga (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	birlik	jamiga nisbatan foizda	birlik	jamiga nisbatan foizda
<b>Jami</b>	<b>29 468</b>	<b>100,0</b>	<b>20 262</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5 376	18,2	3 449	17,0
sanoat	4 584	15,6	2 715	13,4
qurilish	2 442	8,3	1 557	7,7
savdo	8 060	27,4	5 687	28,1
tashish va saqlash	668	2,3	422	2,1
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 877	6,4	1 227	6,1
axborot va aloqa	335	1,1	221	1,1
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	388	1,3	328	1,6
boshqa faoliyat turlari	5 738	19,4	4 656	22,9

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilning 1 iyul holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) Jizzax shahri 8 095 ta (27,5 %), Sharof Rashidov 4 136 ta (14,0 %), G'allaorol 2 674 ta (9,1 %) va Zomin 2 531 ta (8,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.



Jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi  
(2023 yil 1 iyul holatiga, birlik)

	2023 yil 1 iyul holatiga ro'yxatga olinganlar soni	shuningdek, 2023 yil yanvar-iyun oylari davomida:	
		yangi tashkil etilganlar	tugatilganlar
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>47 734</b>	<b>2 205</b>	<b>716</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	8 172	434	172
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	2 714	92	15
Baxmal	3 986	139	54
G'allaorol	5 395	294	120
Sharof Rashidov	6 432	211	61
Do'stlik	2 170	53	37
Zomin	4 615	257	29
Zarbdor	3 797	168	50
Mirzacho'l	2 363	87	34
Zafarobod	2 146	92	15
Paxtakor	2 304	96	31
Forish	2 631	217	91
Yangiobod	1 009	65	7

2023 yilning yanvar-iyun oylarida jami 2 205 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan (shundan kichik biznes sub'yektlari 2 148 ta). Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo'yicha ro'yxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 434 tasi, yoki 19,7 %) hamda G'allaorol (294 tasi, yoki 13,3 %) Zomin (257 tasi, yoki 11,7 %) Forish (217 tasi, yoki 9,8 %) Sharof Rashidov (211 tasi, yoki 9,6 %) Zarbdor (168 tasi, yoki 7,6 %) Baxmal (139 tasi, yoki 6,3 %) Paxtakor (96 tasi, yoki 4,4 %) Arnasoy (92 tasi, yoki 4,2 %) Zafarobod (92 tasi, yoki 4,2 %) Mirzacho'l (87 tasi, yoki 3,9 %) Yangiobod (65 tasi, yoki 2,9 %) va Do'stlik (53 tasi, yoki 2,4 %) tumanlariga to'g'ri keladi.



Ro'yxatga olingan yuridik shaxslarni hududlar bo'yicha taqsimlanishi  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlik)


	2023 yil 1 iyul holatiga ro'yxatga olinganlar	shuningdek, 2023 yil yanvar-iyun oylari davomida:	
		yangi tashkil topganlar	tugatilganlar
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>29 468</b>	<b>2 158</b>	<b>628</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	8 095	434	169
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	1 072	90	15
Baxmal	1 952	136	39
G'allaorol	2 674	287	87
Sharof Rashidov	4 136	208	51
Do'stlik	1 247	53	35
Zomin	2 531	251	29
Zarbdor	1 509	144	42
Mirzacho'l	1 164	86	30
Zafarobod	949	92	12
Paxtakor	1 371	95	25
Forish	2 057	217	88
Yangiobod	711	65	6

2023 yilning yanvar-iyun oylarida (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) jami 2 158 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan (shundan kichik biznes sub'yektlari 2 101 ta). Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo'yicha ro'yxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 434 tasi, yoki 20,1 %), G'allaorol (287 tasi, yoki 13,7 %) va Zomin (251 tasi, yoki 11,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2023 yil 1 iyul holatiga 26 039 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, shundan xususiy korxonalar 4 957 ta, oilaviy korxonalar 2 513 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 18 079 ta, aksionerlik jamiyatlari 19 tani tashkil etadi.



**Ro'yxatga olingan tijorat korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllari bo'yicha soni**  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning 29,5 foizi savdo, 27,2 foizi qishloq va o'rmon baliqchilik xo'jaligi, 18,0 foizi sanoat va 7,8 foizi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohaslariga to'g'ri keladi.

Hisobot davrida 716 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyati tugatilgan.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.** 2023 yil 1 iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorij kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 175 tani tashkil etdi.


2023 yilning 1 iyul holatiga xorij mamlakatlar rezidentlari kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 175 tani tashkil etdi. Bunda, Turkiya Respublikasi rezidentlari kapital ishtirokida 75 ta, Rossiya Federatsiyasi 37 ta, Xitoy Xalq Respublikasi 36 ta, Angilya Buyuk Britaniya 21 ta, Afg'oniston 4 ta va boshqa davlatlar kapital ishtirokida 2 ta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.



**Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hamkor davlatlar kesimidagi soni, birlikda**

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 110 tasi qo'shma korxonalar, 65 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

2023-2022 yillar yanvar-iyun oylari holatiga xorij mamlakatlar rezidentlari kapital ishtirokida ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni – 10 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,0 martaga oshganligi kuzatildi. Bunda, Turkiya Respublikasi – 3 ta, Rossiya Federatsiyasi – 2 ta. Qolaversa boshqa davlatlarning rezidentlari kapital ishtirokida 5 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar  
(2023 yil 1 iyul holatiga, birlikda)

	2023 yil 1 iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotganlar soni	shundan	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>175</b>	<b>110</b>	<b>65</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	54	32	22
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	7	4	3
Baxmal	7	7	-
G'allaorol	10	6	4
Sharof Rashidov	19	11	8
Do'stlik	9	5	4
Zomin	15	9	6
Zarbdor	4	3	1
Mirzacho'l	4	1	3
Zafarobod	6	1	5
Paxtakor	8	7	1
Forish	26	20	6
Yangiobod	6	4	2

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahrida 54 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 30,9%), Forish tumanida 26 ta (14,9%), Sharof Rashidov tumanida 19 ta (10,9%), Zomin tumanida 15 ta (8,6%), G'allaorol tumanida 10 ta (5,7%) hamda Do'stlik tumanlarida 9 ta (5,1%) ni tashkil etadi.



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi  
(2023 yil 1 iyul holatiga)

	Korxonalar soni, birlik	Jamiga nisbatan, % da
<b>Jami</b>	<b>175</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	26	14,9
Sanoat	98	56,0
Qurilish	11	6,3
Savdo	18	10,3
Tashish va saqlash	6	3,4
Yashash va ovqatlanish	3	1,7
Axborot va aloqa	1	0,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	1,1
Boshqa faoliyat turlari	10	5,7


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida xorij kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan 175 ta korxonaning 98 tasi (56,0 %) sanoat, 26 tasi (14,9 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 18 tasi (10,3 %) savdo, 11 tasi (6,3 %) qurilish, 6 tasi (3,4 %) tashish va saqlash, 3 tasi (1,7 %) yashash va ovqatlanish, 2 tasi (1,1 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1 tasi (0,6 %) axborot va aloqa hamda 10 tasi (5,7 %) boshqa sohasiga to'g'ri keladi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023 yil 1 iyul holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 17 060 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2022 yil 1 iyul holatiga nisbatan 75,9 foizga kamaygan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4 439 tasi (26,0 %) Jizzax shahriga, 2 270 tasi (13,3 %) Sharof Rashidov, 1 621 tasi (9,5 %) G'allaorol va 1 483 tasi (8,7 %) Zomin tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi taqsimoti, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 17 060 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 5 677 tasi (33,3 %) savdo, 3 407 tasi (20,0 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 2 688 tasi (15,8 %) sanoat, 1 552 tasi (9,1 %) qurilishda, 1 223 tasi (7,2 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 420 tasi (2,5 %) tashish va saqlash, 243 tasi (1,4 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 204 tasi (1,2 %) axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1 646 tasi (9,6 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmoqlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa sohaslariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining iqtisodiy faoliyati turlari bo'yicha taqsimoti, % da (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)



2023 yilning yanvar–iyun oylarida 2 101 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2022 yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 80,6 foizni tashkil qildi.

Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahrida (412 ta), G'allaorol (280 ta), Zomin (245 ta), Forish (216 ta), Sharof Rashidov (203 ta), Zarbdor (140 ta), Baxmal (127 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Paxtakor (95 ta), Zafarobod (91 ta), Arnasoy (90 ta), Mirzacho'l (86 ta), Yangiobod (63 ta) hamda Do'stlik (53 ta) tumanlarida tashkil etilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni taqqoslanganida eng ko'pi savdo (650 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (552 ta), sanoat (398 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (171 ta) sohalari, shuningdek boshqa faoliyat turlari (140 ta) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam esa, qurilish (87 ta), axborot va aloqa (48 ta), tashish va saqlash (33 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (22 ta) sohalari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023 yilning 1 iyul holatiga 2 513 tani tashkil etdi, ulardan 1 617 tasi yoki 64,3 foizi faoliyat yuritmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining 584 tasi yoki 36,1 foizi sanoat, 455 tasi yoki 28,1 foizi savdo, 235 tasi yoki 14,5 foizi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 190 tasi yoki 11,7 foizi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 17 tasi yoki 1,1 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 12 tasi yoki 0,7 foizi axborot va aloqa, 11 tasi yoki 0,7 foizi qurilish, 1 tasi yoki 0,1 tashish va saqlash hamda 112 tasi yoki 6,9 foizi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.



### Xususiy korxonalar soni (2023 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xususiy korxonalar soni **2023 yil 1 iyul** holatiga ko'ra 4 957 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 257 taga yoki 105,5 foizga ko'payganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 3 019 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1 266 taga yoki 70,5 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

2023 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 246 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 39 taga yoki 86,3 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (2023 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni **2023 yil 1 iyul** holatiga ko'ra 18 079 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 562 taga yoki 116,2 foizga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 12 182 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 392 taga yoki 83,6 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

2023 yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 630 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 189 taga yoki 89,6 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

